



3-SHO‘BA: MADANIYATLARARO MULOQOT VA LINGVOMADANIYAT- SHUNOSLIK ASPEKTLARI

O‘ZBEKISTON MAHALLIY TILLARINING MAMLAKAT LISONIY VAZIYATIDA TUTGAN O‘RNI VA TA’LIM TILLARI MENEJMENTI

Rafiqjon Zaripov Ergashboy o‘g‘li
Renessans ta’lim universiteti dotsenti.,
Filologiya fanlari doktori (DSc).
zaripovrafiqjon1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat, mamlakatdagi tillarning maqomi, mahalliy tillar menejmenti, ularning aholi qatlamlari nutqida qo‘llanish darajasi, ta’lim tillari boshqaruvi, davlat tili haqidagi qonun hujjatlarida mamlakat lisoniy vaziyatidagi tillarga qaratilgan e’tibor masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat, mamlakatdagi tillarning maqomi, mahalliy tillar menejmenti, ta’lim tillari boshqaruvi, mahalliy tillar.

Abstract: This article describes the linguistic situation in Uzbekistan, the status of languages in the country, the management of local languages, the level of their use in the speech of the population, the management of educational languages, the issues of attention focused on languages in the linguistic situation of the country in the legislation on the state language.

Key words: linguistic situation in Uzbekistan, status of languages in the country, management of local languages, management of educational languages, local languages.

Ona diyorumiz azaldan ko‘p millatli bo‘lib kelganligi tufayli aholi ham shunga mos ravishda ko‘p tilli bo‘lib kelgan. Hozir yurtimizda istiqomat

qilayotgan millat va elat vakillariga har tomonlama ko‘mak berish maqsadida 139 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib bormoqda. Respublikamizda millatlar ko‘p, ammo ular qo‘llaydigan tillarning barchasi ham keskin farqlilik kasb etmaydi. Xususan, mamlakatimizda mavjud millat yoki elatlar tillarining 15–20% muayyan darajada farqlilik kasb etadi. Qayd etish joizki, diyorimizda quyiroqda keltirilajak jadvaldagi millatlar tillari istiqloq davrida ham o‘z maqomini saqlab kelmoqda. Ammo ularning ayrimlari tobora yo‘qolish sari yuz tutayotganligi fakt. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz lisoniy vaziyati jiddiy ilmiy tadqiqotlarni taqozo qilishini bugungi svilizatsiya va globallashuv ko‘rsatmoqda.

Mustaqillikning ilk yillarida davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, harbiy faoliyat, iqtisodiyot kabi sohalarda rus tili o‘zbek tili bilan teng qiymatda bo‘lgan. Aslida esa mamlakatimizda o‘zbek tilining nufuzini ko‘tarishga qaratilgan ishlar ko‘plab amalga oshirilgan. Respublikada mavjud millatlarning katta qismi o‘zaro muloqotda asosan rus tilidan foydalanar edi. O‘zbek tilining o‘z mavqeyiga ega bo‘lishi hamda barcha sohalarga kirib borishiga milliy tilimiz yuksalishi yo‘lida qilingan amaliy harakatlar sabab bo‘ldi. Jumladan, ta‘lim sohasida istiqloq yillarida ta‘lim tili sifatida o‘zbek tilining boshqa tillarga nisbatan ko‘rsatkichi oshib bordi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatdagi boshqa tillarning maqomi qonunan belgilab qo‘yildi. Xususan, rus tilining rasmiy yoki millatlararo til maqomi yo‘qoldi va ushbu til ham mamlakatda tarqalgan boshqa tillar bilan bir darajada ko‘rila boshlandi.

O‘zbekistonning lingvistik muhiti keng, unda bir necha til alohida ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni mazkur tillardagi so‘zlashuvchilar mamlakat aholisining salmoqli qismini tashkil qiladi. Shu sababdan ham til menejmentida ushbu tillar boshqaruviga alohida e‘tibor qaratiladi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston til menejmentida alohida e‘tibor talab qiluvchi tillar umumlashmasini ko‘rishimiz mumkin:

Til	Tarqalish hududi	So‘zlashuvchilar soni	Holati
-----	------------------	-----------------------	--------

Tojik	Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Namangan, Toshkent, Farg‘ona [5].	1,5 million	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan
Qozoq	Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va Toshkent [5].	800.000	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan
Rus	Yirik shaharlarda.	759 000 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan, millatlararo aloqa tillaridan
Qoraqalpoq	Qoraqalpog‘iston Muxtor Respublikasi; Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari, quyi Amudaryo bo‘yida, Orol dengizi janubida.	726 000 (2019).	Qoraqalpog‘iston Muxtor Respublikasida davlat tili. O‘zbekistonning boshqa hududlari uchun mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan
Qirg‘iz	Andijon, Namangan, Farg‘ona, Jizzax, Sirdaryo [5].	271.000	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Turkman	Navoiy, Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog‘iston [5].	189.000	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan

Quyida mamlakatimiz til vaziyatida o‘zining muhim ulushiga ega bo‘lgan millatlar tillarining ta’lim tizimidagi holatiga va respublikamizdagi ta’lim tillari menejmentiga e’tibor qaratamiz.

Respublikamiz umumta’lim maktablarida ta’lim 7 tilda olib borilmoqda. Ular 7 tildagi darsliklar bilan to‘liq ta’minlangan. Mamlakatdagi ta’lim tillari manzarasi quyidagicha ko‘rinishda: 2018–2019-o‘quv yili davrida umumiy maktablar soni 9691 taga yetgan. Umumiy o‘quvchilar soni esa 5 821 861 nafarni tashkil etgan [2]. Ta’lim tillari bo‘yicha o‘quvchilar soni: o‘zbek tilida 4 981 511 nafar (85,6%), qoraqalpoq tilida 115 656 nafar (2%), rus tilida 581 881 nafar (10%), qozoq tilida 54 926 nafar (1,0%), tojik tilida 69 385 nafar (1,2%), qirg‘iz tilida 7 859 nafar (0,1%), turkman tilida 10 643 nafar (0,2%)ni, ta’lim tillari

bo‘yicha maktablar soni o‘zbek tilida 8 853 ta, qoraqalpoq tilida 366 ta, rus tilida 862 ta, qozoq tilida 370 ta, tojik tilida 244 ta, qirg‘iz tilida 42 ta, turkman tilida 43 tani tashkil etgan [2].

Respublikamizdagi lisoniy vaziyatni belgilashda yuqoridagi tillar katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi lisoniy vaziyatni o‘zida jamlagan xalqaro tashkilotlar ma’lumotlaridan ham buni anglash mumkin. Etnolog [4] va Jahon faktlar kitobida [3] keltirilgan O‘zbekistonda mavjud tillar haqidagi faktlarni quyidagi jadvalda keltiramiz:

Til	Tarqalish hududi	Foydalanuvchilar	Holati
Arab, O‘zbek tilida so‘zlashadi	Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari, Samarqand viloyati, o‘rta va quyi Zarafshon vodiysi, bir qismi Kattaqo‘rg‘on shahrida; kichik qishloqlar	700 (1992 G.Watson).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan. O‘lib borayotgan (Moribund)
Arman, g‘arbiy	Toshkent shahri; Samarqand viloyati.	65 700 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan, Rivojlanishda
Ozarbayjon, Shimoliy	Respublika bo‘ylab	59 600 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Boshqird	Respublika bo‘ylab	46 500 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Belarus	Respublika bo‘ylab	21 200 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Buxoriy	Buxoro viloyati	3840 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Chechen		1700 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Chuvash	Samarqand va Toshkent viloyatlari	13 100 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng

			tarqalmagan.
Qrim tatar	Navoiy va Samarqand viloyatlari	177 000 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan, rivojlanishda
Dargva	Xorazm viloyati: respublika shimoli	2600 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Dungan		1700 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Erzya	Toshkent viloyati	16 200 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Gruzin	Xorazm viloyati: respublika shimolida Turkmaniston chegarasiga yaqin hududlarda	6200 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Nemis, standart		17 200 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Yunoncha		5300 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan.
Qoraqalpoq	Qoraqalpog‘iston Muxtor Respublikasi; Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari, quyi Amudaryo bo‘yida, Orol dengizi janubida	726 000 (2019). Etnik aholisi: 726 000 (2019 yilgi Jahon faktlar kitobi). dunyo mamlakatlardagi jami foydalanuvchilar: 869 870.	Qoraqalpog‘istonda davlat tili (1995-yil, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun (o‘zgartirilgan). O‘zbekistonning boshqa hududlari uchun mahalliy til, so‘zlashuv tili, rivojlanishda
Qozoq	Qoraqalpog‘iston Muxtor Respublikasi; Buxoro, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari.	824 000 (2019). Etnik aholi: 825 000 (2019 yilgi Jahon faktlar kitobi).	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan
Koreys	Toshkent shahri, Navoiy va Andijon	182 000 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili,

	viloyatlarida		tarqalgan
Qirg‘iz	Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlari: tarqoq	282 000 (2019)	Mahalliy til, ta‘lim tili, so‘zlashuv tili, tarqalgan
Lak		3700 (2019)	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Lazgi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi: Nukus viloyati.	4000 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Litva		2000 (2010 J. Leclerc).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Mari, Yaylov		5000 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Osettik		7800 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Parya	Surxondaryo viloyati: Surxondaryo vodiysining yuqori qismi	1000 (2008).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
fors, eron	Xorazm viloyati; boshqa hududlarga ham tarqalib ketgan	33 300 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Polyak		3300 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Rumin		8 000 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Rus	Yirik shaharlarda.	L1 foydalanuvchilari: 4 720 000 (2019 World Factbook). Etnik aholi: 759 000 (2019 yilgi Jahon faktlar kitobi).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalgan, millatlararo aloqa tillaridan,
Tojik	Farg‘ona vodisi, Toshkent, Samarqand,	1 450 000 (2019 World	Mahalliy til, ta‘lim tili, so‘zlashuv tili,

	Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari.	Factbook). Etnik aholi: 1,580,000 (2019-yilgi Jahon faktlar kitobi).	keng tarqalgan
Tatar		702 000 (2017). Etnik aholisi: 479 000 (2017).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Turkcha	Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari.	143 000 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, tarqalgan
Turkman	Turkmaniston chegarasida tarqalgan	197 000 (2019).	Mahalliy til, ta’lim tili, so‘zlashuv tili, tarqalgan
Udmurt		4140 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Ukrayin		72 700 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan
Uyg‘ur	Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari	48 500 (2019).	Mahalliy til, so‘zlashuv tili, keng tarqalmagan

1989-yilgi Butunittifoq aholini ro‘yxatga olish, SSSR respublikalari bo‘yicha aholining milliy tarkibi hisobida O‘zbekiston SSRda 129 millat vakillari keltirilgan [1]. Yuqorida biz keltirgan millat vakillari ham ushbu ro‘yxatga kiritilgan. Ammo shundan keyin ushbu ma’lumotlar yangilanmagan. Shu sabab biz mamlakatda istiqomat qiluvchi millatlarning lingvistik maqomini to‘la qamrab ola bilmadik.

O‘zbek jamiyatida qayd etilgan tillarning roli va nufuzi yuqori. Ammo til menejmentida ularga alohida normalar belgilanmagan bo‘lib, mazkur tillarni rivojlantirish, asosan ushbu tillar vakillari hamda ular tomonidan tashkil etilgan milliy-madaniy markazlar zimmasiga yuklangan. Xolisona aytganda, mamlakat til menejmentida mahalliy tillardan faqatgina ta’lim tillaridagina mavjud bo‘lgan tillarga e’tibor qaratilgan. Qonun hujjatlarida ushbu til vakillarining ta’lim olish



huquqlarini qondirish va ularni yetarlicha resurslar bilan ta’minlash masalalari nazarda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. http://www.demoscope.ru/weekly/ssp/sng_nac_89.php?reg=7
2. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ular-da-necha-nafar-oquvchi-ta`lim-oladi>
3. <https://www.cia.gov/the-world-factbook//>
4. <https://www.ethnologue.com/country/UZ>
5. <http://interkomitet.uz>